

ODIL YOQUBOVNING “YAXSHILIK” HIKOYASI ORQALI O‘QUVCHILARNING TANQIDIY TAFAKKURINI OSHIRISH

Maxmudova Umriniso Mansurbekovna

Urganch davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi

3-bosqich talabasi

+998905792026

maxmudovaumriniso18@gmail.com

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 17.05.2026

Revised: 18.05.2026

Accepted: 19.05.2026

Ushbu maqolada adabiyot fanining serqirra ijodkorlaridan biri bo‘lgan Odil Yoqubovning “Yaxshilik” hikoyasi haqida so‘z boradi. Hikoyaning adabiy ta’limdagi o‘rni va hikoyada tasvirlangan milliy qadriyatlarga alohida to‘xtalib o‘tiladi.

KALIT SO‘ZLAR:

*yaxshilik, maqola,
ocherk, urush, tinchlik,
to‘y, nihol*

Adabiyot har bir davrda insonlar uchun katta bir maktab vazifasini o‘tagan va hali bugungacha bu jarayon davom etmoqda. Adabiyot inson ruhiyati, uning ichki kechinmalari, o‘y hayollari bilan shug‘ullanadigan fan. Adabiyotni qanchalik chuqur o‘rgansak, dunyoqarashimiz ham shunchalar boyib boraveradi. Bu haqda adabiyotshunos olim To‘xta Boboev quyidagicha fikr bildirgan: “Adabiyot hayotning muhim voqea-hodisalari, kishilarning o‘ziga xos xislatlari, ruhiyati, orzu-umidlari, dardi, sir-asrirlari aks etadi. Shu tariqa, adabiyot turmushni o‘rganish quroli bo‘lib xizmat qiladi”[1.8b]. XX asr o‘zbek adabiyotida o‘z asarlari bilan kitobxonlar qalbidan joy olgan ijodkor Odil Yoqubov ham o‘zidan o‘chmas iz qoldirgan. Odil Yoqubov bolaligi juda qiyinchilikda o‘tgan. Boshidan kechirgan qiyinchiliklari uning tengdoshlariga nisbatan tezroq katta bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

Yozuvchi o'zining hikoya va ocherklari, publisistik maqola va pesalari, qissa va romanlari bilan o'quvchilarning sevimli ijodkori bo'lib qolgan. Uning hikoya, qissalarida tabiat boyliklarini asrash va kelajak avlodga har bir narsani go'zal holda yetkazib berish kerakligi haqida so'z boradi. Yozuvchining birin-ketin yozilgan romanlari uning katta nasr mohir ustasi ekanligini ham isbotlaydi. U yaratgan romonlar bugungi kunda ham kitobxonlar tomonidan sevib mutolaa qilinadi. U ko'plab romonlarida tarixiy shaxslarni bosh qahramon qilib, o'quvchilar tassavvurida o'tmishni gavdalantirgan. U o'z asarlarida har doim real voqealarni tasvirlagan. Odil Yoqubov ijodi mavzu jihatdan rang-barang, mazmunan boy. Uning dastlabki yillarda yozilgan hikoyalarida asosiy voqea-hodisalar urush davri bilan bog'liq bo'lgan. Juda ko'plab yosh-yosh yigitlarimiz urushga ketib, qaytib kelishmagan yoki yarador holatda qaytib kelishgan. O'sha davrdagi insonlarning ichki kechinmalarini yozuvchi "Yaxshilik" hikoyasi orqali juda chiroyli tarzda yoritib bergan.

O'sha davrning eng o'g'riqli nuqtalaridan biri bu – urush. Urush haqida jahon adabiyotida ham, o'zbek adabiyotida ham juda ko'plab she'rlar, asarlar yozilgan. Urush ko'p xonadonlarning yostig'ini quritgan. Qanchadan qancha yosh yigitlarimiz umriga zomin bo'lgan. Hikoyada aks etgan asosiy mavzu ham urush asosiga qurilgan. Urushdan keyingi davrlar ham insonlar uchun juda og'riqli bo'lgan. Urush qoldirgan asoratlar jamiyat uchun juda katta talofatlar keltirgan. Bu haqda Zulfiyaxonim o'z ijodida juda chiroyli tarzda bayon etgan. "Yo'q, urushning nomi ham o'chsin, Mening o'g'lim kerak hayotga" [3.17b]. Bu hayotning yarmi shodlik, yarmi g'am deganlaridek hikoya qahramoni ham to'yining ertsiga yoq urishga jo'nab ketadi. "Ertalab esa guzarga yig'ilgan xaloyiq tog'am boshliq o'ttiz nafar yigitni ko'z yoshi va duolar bilan kuzatib qolishdi..." [5.37b]. Ushbu hikoyada urush bilan bog'liq bo'lgan qora xat mavzusiga ham to'xtalib o'tilgan. Birgina qora xat necha minglab insonlarning ko'z yoshiga sabab bo'lgan. Ko'zi to'rt bo'lib bolasini kutayotgan ona uchun, o'g'lining o'limi haqida habar kelishi naqadar achinarli holat ekanligini hikoyani o'qish orqali bilib olamiz.

Yuqorida aytib o'tganimizdek yozuvchi "Yaxshilik" hikoyasi orqali jamiyatimizdagi urush, u qoldirgan jarohatlar, qora xat kabi mavzularni yoritib bergan. Hammamizga ma'lumki to'y tasviri bizning o'zbek adabiyotida deyarli barcha asarlarimizda yoritib beriladi. Xalq og'zaki ijodiga, xalq dostonlariga nazar soladigan bo'lsak, ulaning asosiy qismini ham to'y tasviri tashkil qiladi. Xuddi shunga o'xshash na'munani "Kuntug'mish" dostonida ham ko'rishimiz mumkin. "Kuntug'mish to'ra qirq kun, qirq tun to'y berib, to'yi tamom bo'ladigan kuni jamiy arkon davlatni yig'ib Xolmo'minni Zangarga podshoh qildi". [2.263b]. Xuddi shunday ushbu maqolada tahlilga tortilayotgan "Yaxshilik" hikoyasi ham to'y

tayorgarliklari bilan boshlanadi. "... Buvimning sersoya bog'i qarindosh-urug'larimizga, tog'am ning yor-birodarlariga to'lgan: birov o'choq qurmoqda, birov o'tin yormoqda, birov hovliga suv sepib, so'riga palos yozmoqda. Kechqurun to'y!" [5.34b].

Har bir davr adabiyotida o'xshatish, so'z qo'llash asosiy qoidalardan biri bo'lgan. O'xshatish badiiy tilning tasviriy vositalaridan biri bo'lib, u obrazlilik, tasviriylilikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Ta'sirchan fikr ifodalash uning muhim belgilaridan biri sanaladi. O'xshatish majoziy tilning keng tarqalgan shakllaridan biri. Badiiy adabiyotlarimizni o'xshatishlarsiz tasavur qilib bo'lmaydi. Badiiy asarlarda o'xshatishlardan foydalanish yozuvchining mahoratini ko'rsatib beradi va o'quvchilarning tasavur olamini yanada kengaytiradi. Hikoyada ham bir qancha o'xshatishlar mavjud bo'lib, shulardan biri: "U bolta teggan yosh niholday ikki bukilib, oyog'i ostidagi tikanga tiz cho'kib qoldi" [5.42b] Ushbu jumlada hikoya qahramoni eshitgan yomon xabaridan gangib qolgani bolta teggan yosh niholga qiyoslanmoqda. Bu o'xshatish orqali yozuvchining mahoratiga yana bir bor tan berish lozim.

Hikoyaning nomi "Yaxshilik" deb nomlangan. Adabiyot o'qitish metodikasi kitobida "Adabiyot inson ma'naviy dunyosini shakllantirish va axloqiy qiyofasini tarkib toptirishning eng samarali vositasidir" [4.6b],- degan fikr aytib o'tilgan. Yaxshilik har bir o'quvchi tassavvurida turlicha namoyon bo'ladi. Yaxshilik kimgadir yordam berish ma'nosini anglatga, yana kimdir uchun yaxshilik bu insonga ruhiy tomonlama madad berish yordam hisoblanadi. Hikoya qahramoni ham o'zi qilgan ishni yaxshilik deb biladi. Chunki uning maqsadi kelinoyisini xafa qilish emas edi. U o'zi qilgan ishdan juda afsuslanadi. "U mening "yaxshiligim"ni kechirmagan, kechirolmagan edi" [5.43b]

Har bir badiiy asar ma'lum bir g'oyani o'quvchilarga yetkazish uchun yoziladi. "Yaxshilik" hikoyasining ham maktab darsligida berilishidan maqsad o'quvchilarga milliy qadriyatlarimizni, oldingi davrning qiyinchiliklarini ko'rsatib berishdir. Hikoyani o'qitish orqali o'quvchilarda o'sha davrga nisbatan tanqidiy fikrlash shakllanadi. Urush va uning yomon oqibatlari haqida ma'umotga ega bo'ladilar. Har bir inson hayoti davomida qo'lidan kelgancha yaxshilik qilishi kerakligi haqida ham alohida to'xtalib o'tilgan. Yaxshilik qilgan inson har doim yaxshilik ko'radi. Turli xil yomon illatlardan uzoq bo'ladi. Yomonlik qilish qay darajada chirkin ish ekanligini tushinib yetishadi. Odil Yoqubovning bu kabi asarlari juda ham ko'p. Bunday asarlarni faqatgina o'qimasdan uqib olish ham zarur.

Adabiyotlar ro'yxati

1. To'xta Boboev. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2002. – 560 b.
2. O'zbek xalq ijodi. Kuntug'mish. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1975. – 135 b.
3. Zulfiya. Bahor keldi seni so'roqlab. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – 184 b.
4. Zulxumor Mirzayeva, Komil Jalilov. O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi. Toshkent: Academ space, 2024. – 295 b.
5. Zulxumor Mirzayeva, Komil Jalilov. Adabiyot. 6-sinf uchun darslik. Toshkent: 2022, - 224 b.

